



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

2023-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



# Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **37,4** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,5** mingtaga kamaygan yoki **22,0** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,7** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023-yilning yanvar-dekabrida **7,6** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **28,7** % ga kam demakdir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2020-2024-yillar 1-yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



## 2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni (birlikda) va ulushi, foizda



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


## Hududlar bo'yicha 2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023-y.		2024-y.
13 775	Samarqand sh.	10 617
1 539	Kattaqo'rg'on sh.	1 281
2 068	Oqdaryo	1 680
2 012	Bulung'ur	1 599
1 934	Jomboy	1 588
2 595	Ishtixon	1 860
2 450	Kattaqo'rg'on	1 886
1 029	Qo'shrabot	938
1 467	Narpay	1 264
2 472	Payariq	1 866
4 061	Pastdarg'om	2 806
1 203	Paxtachi	1 075
3 551	Samarqand	3 128
1 514	Nurobod	1 187
4 189	Urgut	2 904
2 084	Toyloq	1 719

2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **37 398** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **7 570** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Samarqand shahrida **10 617** tani yoki jamiga nisbatan **28,4 %** ni tashkil etdi.

## 2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Samarqand sh.	18,3
Samarqand	13,9
Bulung'ur	13,5
Kattaqo'rg'on sh.	13,6
Oqdaryo	12,6
Jomboy	12,2
Nurobod	12,0
Payariq	11,9
Ishtixon	10,2
Toyloq	10,7
Kattaqo'rg'on	10,0
Qo'shrabot	11,0
Paxtachi	10,1
Pastdarg'om	8,7
Urgut	8,0
Narpay	7,7

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2024-yil 1-yanvar holatiga, birlikda



2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **11,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan **0,1** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **18,3** birlik, Samarqand tumanida **13,9** birlik, Bulung'ur tumanida **13,5** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **13,6** birlik va Oqdaryo tumanida **12,6** birlikka yetdi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

## Eng yuqori ko'rsatkich

Samarqand shahar  
18,3 birlik.




## O'rta ko'rsatkich

Ishtixon tumani  
10,2 birlik.



## Eng past ko'rsatkich

Narpay tumani  
7,7 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **18,3** birlik, Samarqand tumanida **13,9** birlik, Bulung'ur tumanida **13,5** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **13,6** birlik, Oqdaryo tumanida **12,6** birlik, Jomboy tumanida **12,2** birlik, Nurobod tumanida **12,0** birlik, Payariq tumanida **11,9** birlik, Qo'shrabot tumanida **11,0** birlik, Toyloq tumanida **10,7** birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1-yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Samarqand shahar

18,3

Bulung'ur tumani

13,5

Oqdaryo tumani

12,6

Samarqand tumani

13,9

Kattaqo'rg'on shahar

13,6

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda  
2022-y. 2023-y.

2 605	Samarqand sh.	1 782
919	Pastdarg'om	644
870	Samarqand	640
892	Urgut	519
505	Bulung'ur	470
537	Oqdaryo	382
558	Kattaqo'rg'on	381
660	Ishtixon	385
535	Payariq	418
501	Toyloq	375
455	Jomboy	307
411	Nurobod	285
293	Paxtachi	271
318	Narpay	243
310	Kattaqo'rg'on sh.	262
244	Qo'shrabot	206

2023-yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

Samarqand sh.	23,5
Pastdarg'om	8,5
Samarqand	8,4
Urgut	6,9
Bulung'ur	6,2
Payariq	5,5
Ishtixon	5,1
Oqdaryo	5,0
Kattaqo'rg'on	5,0
Toyloq	5,0
Jomboy	4,1
Nurobod	3,8
Paxtachi	3,6
Kattaqo'rg'on sh.	3,5
Narpay	3,2
Qo'shrabot	2,7


2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri **23,5** %, Pastdarg'om tumani **8,5** %, Samarqand tumani **8,4** %, Urgut tumani **6,9** %, Bulung'ur tumani **6,2** %, Payariq tumani **5,5** %, Ishtixon tumani **5,1** % hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023-yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 3 254 ta, sanoatda 1 225 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 729 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahrida 1 782 ta, Pastdarg'om tumanida 644 ta, Samarqand tumanida 640 ta hamda Urgut tumanida 519 ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023-yillarning yanvar-dekabr davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023-yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **45 646** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **19 893** (yoki **43,6 %**) ta, xizmatlar sohasida **10 619** (yoki **23,3 %**) ta, sanoat sohasida **8 279** (yoki **18,1 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **4 585** (yoki **10,0 %**) ta va qurilish sohasida **2 270** (yoki **5,0 %**) tani tashkil etgan.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, foizda



■ 2022-y. ■ 2023-y.




■ 2022-y. ■ 2023-y.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), foizda

2023-yilning yanvar-dekabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **72,8 %** ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **2,4** punktga ko'paygan. Ko'payishining asosiy sababi, kichik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




## 2023-yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, foizda




2023-yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **98,4 %** ni, yo'lovchi tashishda **96,1 %** ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida **93,7 %** ni, yuk aylanmasida **89,9 %** ni, qurilishda **82,9 %**, chakana savdoda **82,5 %** ni, tashkil etdi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	3 702,6
Urgut	1 760,0
Jomboy	1 674,9
Samarqand	1 380,4
Toyloq	843,9
Bulung'ur	757,0
Kattaqo'rg'on sh.	692,0
Oqdaryo	676,9
Pastdarg'om	642,0
Nurobod	487,2
Narpay	446,0
Payariq	433,0
Kattaqo'rg'on	357,3
Paxtachi	326,8
Ishtixon	242,8
Qo'shrabot	138,4

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **14 561,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (**3 702,6** mlrd. so'm), Urgut (**1 760,0** mlrd. so'm), Jomboy (**1 674,9** mlrd. so'm), Samarqand (**1 380,4** mlrd. so'm) va Toyloq (**843,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qo'shrabot tumani (**138,4** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2023-yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **44,6 %** ni tashkil etdi.




2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, foizda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oqdaryo, Bulung‘ur va Qo‘shrabot tumanlari (**100,0 %**), Kattaqo‘rg‘on shahri (**96,6 %**), Nurobod tumani (**93,8 %**), Urgut tumani (**74,3 %**), Payariq tumani (**65,3 %**), Samarqand tumani (**62,4 %**), Pastdarg‘om tumani (**57,9 %**), Jomboy tumani (**51,8 %**), Narpay tumani (**52,9 %**), Kattaqo‘rg‘on tumani (**55,3%**) va Paxtachi tumanida (**43,6 %**) ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Toyloq	346,0	28,5
Pastdarg'om	368,2	44,1
Nurobod	167,6	91,7
Payariq	786,5	87,8
Qo'shrabot	185,8	97,9
Kattaqo'rg'on sh.	213,4	94,4
Bulung'ur	228,9	81,3
Urgut	455,7	96,8
Samarqand sh.	2 467,1	95,7
Ishtixon	436,2	100,0
Kattaqo'rg'on	567,8	100,0
Paxtachi	195,4	85,5
Narpay	239,7	100,0
Oqdaryo	664,0	96,8
Samarqand	638,4	98,4
Jomboy	389,6	100,0


2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **8 350,2** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **82,9** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **123,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (**2 467,1** mlrd. so'm), Payariq (**786,5** mlrd. so'm), Oqdaryo (**664,0** mlrd. so'm), Samarqand (**638,4** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**567,8** mlrd. so'm), Urgut (**455,7** mlrd. so'm), Ishtixon (**436,2** mlrd. so'm) hamda Jomboy (**389,6** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

hajmi, mlrd. so'mda   
 ulushi, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **16 841,6** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **63,4 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **142,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Samarqand shahri (**4 305,6** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**4 052,7** mlrd. so'm), Samarqand (**2 105,9** mlrd. so'm), Nurobod (**1 339,5** mlrd. so'm) Pastdarg'om (**831,8** mlrd. so'm), Urgut (**803,8** mlrd. so'm), Jomboy (**584,6** mlrd. so'm), Toyloq (**428,1** mlrd. so'm), Payariq (**409,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, foizda



## 2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi

Toyloq	428,1	80,7
Pastdarg'om	831,8	51,0
Nurobod	1 339,5	66,6
Payariq	409,5	75,2
Qo'shrabot	406,6	54,4
Kattaqo'rg'on sh.	230,2	67,2
Bulung'ur	305,2	63,6
Urgut	803,8	64,8
Samarqand sh.	4 305,6	72,4
Ishtixon	262,6	64,2
Kattaqo'rg'on	4 052,7	64,0
Paxtachi	260,5	65,9
Narpay	334,3	67,6
Oqdaryo	180,8	68,1
Samarqand	2 105,9	48,7
Jomboy	584,6	65,7


hajmi, mlrd. so'mda  
ulushi, %



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **47 974,9** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **93,7** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **104,9** % ni tashkil qildi.

## 2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p yetishirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Urgut (**5 819,8** mlrd. so‘m), Ishtixon (**4 823,9** mlrd. so‘m), Kattaqo‘rg‘on (**4 680,0** mlrd. so‘m), Bulung‘ur (**4 973,2** mlrd. so‘m), Payariq (**4 665,4** mlrd. so‘m), tumanlarida qayd etildi.

## 2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Kattaqo‘rg‘on sh.	224,0	99,7
Samarqand sh.	246,4	69,6
Samarqand	2 323,3	82,2
Qo‘shrabot	1 991,5	99,7
Narpay	2 151,7	99,3
Nurobod	1 300,0	97,7
Toyloq	2 897,6	78,3
Jomboy	2 442,9	73,8
Paxtachi	1 964,9	93,0
Oqdaryo	3 318,3	95,8
Ishtixon	4 823,9	97,7
Kattaqo‘rg‘on	4 680,0	96,8
Bulung‘ur	4 973,2	99,2
Payariq	4 665,4	98,8
Urgut	5 819,8	99,7
Pastdarg‘om	4 152,2	94,7

hajmi, mlrd. so‘mda  
ulushi, %

## 2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, foizda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2018-2023-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.  
■ hajmi, trln. so'm — ulushi, %


2023-yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **24 934,9** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **82,5 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **110,4 %** ni tashkil qildi.

## 2023-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Qo'shrabot	510,5	99,0
Nurobod	505,4	99,0
Oqdaryo	715,6	97,2
Paxtachi	596,8	98,9
Toyloq	857,3	98,0
Ishtixon	1 053,6	99,4
Jomboy	952,4	88,3
Payariq	1 112,9	99,3
Narpay	952,3	99,2
Bulung'ur	1 220,4	97,4
Pastdarg'om	1 651,3	97,3
Kattaqo'rg'on	1 678,6	96,7
Samarqand	1 518,3	59,9
Kattaqo'rg'on sh.	1 786,5	99,9
Urgut	3 224,0	98,5
Samarqand sh.	6 599,2	63,0

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (**6 599,2** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**1 786,5** mlrd. so'm), Urgut (**3 224,0** mlrd. so'm), Samarqand (**1 518,3** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**1 678,6** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**1 651,3** mlrd. so'm) va Narpay (**952,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## 2018-2023-yillarning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda


Samarqand sh.	6 183,7
Samarqand	1 658,5
Pastdarg'om	1 427,6
Urgut	1 379,3
Jomboy	993,7
Toyloq	915,1
Kattaqo'rg'on	851,3
Payariq	847,1
Ishtixon	838,0
Narpay	793,9
Oqdaryo	738,1
Bulung'ur	582,4
Kattaqo'rg'on sh.	549,4
Qo'shrabot	471,0
Paxtachi	469,2
Nurobod	442,1

2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **19 140,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,0 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **111,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (**6 183,7** mlrd. so'm), Samarqand (**1 658,5** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**1 427,6** mlrd. so'm), Urgut (**1 379,3** mlrd. so'm), Jomboy (**993,7** mlrd. so'm), Toyloq (**915,1** mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (**851,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari



Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida **35,7 %** (**4 860,1** mlrd. so'm), transport xizmatlarida **33,2 %** (**4 240,6** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda **6,7 %** (**1 347,1** mlrd. so'm) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **5,7 %** (**899,8** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,4 %** (**41,2** mlrd. so'm) kuzatildi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSh. dol.




Ulushi, %




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSh. dol.




Ulushi, %



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **315,8** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **42,3** % ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Nurobod	3,1	100,0
Qo'shrabot	2,6	100,0
Kattaqo'rg'on sh.	33,7	100,0
Bulung'ur	16,1	100,0
Oqdaryo	23,0	100,0
Payariq	12,2	100,0
Urgut	40,3	77,9
Kattaqo'rg'on	7,4	88,4
Ishtixon	11,8	68,5
Narpay	14,2	66,5
Pastdarg'om	9,7	61,0
Toyloq	8,2	42,8
Samarqand	38,9	52,9
Paxtachi	3,8	40,4
Jomboy	28,0	28,7
Samarqand sh.	48,7	14,9


hajmi, mln. AQSh. dollar

ulushi, %

2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Payariq, Oqdaryo, Bulung'ur, Qo'shrabot, Nurobod tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida **100,0** %, Urgut tumanida **77,9** %, Kattaqo'rg'on tumanida **88,4** %, Ishtixon tumanida **68,5** %, Narpay tumanida **66,5** %, Pastdarg'om tumanida **61,0** %, va Toyloq tumanida **42,8** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Samarqand shahri **14,9** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **945,4** million AQSh dollarini yoki jami importning **44,6** % ini tashkil etdi.

**2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, foizda**

2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Payariq va Qo'shrabot tumanlarida **100,0** %, Kattaqo'rg'on tumanida **99,5** %, Kattaqo'rg'on shahrida **99,2** %, Paxtachi tumanida **98,7** %, Ishtixon tumanida **91,7** %, Bulung'ur tumanida **93,6** %, hamda Narpay tumanida **93,1** % ni tashkil etdi.

Payariq	100,0
Qo'shrabot	100,0
Kattaqo'rg'on	99,5
Kattaqo'rg'on sh.	99,2
Paxtachi	98,7
Bulung'ur	93,6
Narpay	93,1
Ishtixon	91,7
Pastdarg'om	91,1
Urgut	87,4
Oqdaryo	82,5
Pastdarg'om	74,2
Samarqand	64,1
Jomboy	46,3
Toyloq	39,1
Samarqand sh.	25,6

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



92,0 %

Yuk  
tashishda

2023-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,0 %** ni tashkil etdi. 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,4 %** ni tashkil qildi.



86,6 %

Yuk  
aylanmasida

2023-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,6 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **104,0 %** ni tashkil qildi.



96,1 %

Yo‘lovchi  
tashishda

2023-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,1 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **101,4 %** ni tashkil qildi.



98,4 %


Yo‘lovchi  
aylanmasida

2023-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,4 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,3 %** ni tashkil qildi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023-yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1 802 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 765 (42,5 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 893 (49,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 144 (8,0 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda 46,1 % (830 ta), xizmatlar sohasida 29,5 % (531 ta), sanoatda 14,2 % (256 ta), qurilishda 5,8 % (104 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4,5 % (81 ta)ni tashkil etdi.

2023-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

569	Samarqand sh.	31,6
70	Kattaqo'rg'on sh.	3,9
60	Oqdaryo	3,3
71	Bulung'ur	3,9
80	Jomboy	4,4
74	Ishtixon	4,1
82	Kattaqo'rg'on	4,6
39	Qo'shrabot	2,2
74	Narpay	4,1
81	Payariq	4,5
118	Pastdarg'om	6,5
51	Paxtachi	2,8
166	Samarqand	9,3
51	Nurobod	2,8
125	Urgut	6,9
91	Toyloq	5,1


**Soni, birlikda**

**Ulushi, foizda**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (**569** ta), Samarqand (**166** ta), Urgut (**125** ta), Pastdarg'om (**118** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2018-yilning IV choragida **308** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning IV choragiga kelib esa **765** taga yetgan yoki 2018-yilning IV choragiga nisbatan **457** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2018-yilda **614** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-dekabrida **893** ta yoki **279** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar soni ulushi esa 2018-yilda **99** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib **144** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan **45** taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2018-yilning IV choragida **328** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning IV choragiga kelib esa **783** taga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **455** taga oshgan.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2018-yilning IV choragida **671** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning IV choragida **683** ta yoki **12** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018-yilning IV choragida **54** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **184** tani tashkil etib, **130** taga oshgan.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), foizda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning IV choragida **34,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **47,5** % ga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **12,9** % birlikka oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilda **53,2** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning IV choragida **41,3** % yoki **11,9** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018-yilda **12,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich **11,2** % ga yetgan yoki **1,0** % ga kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), foizda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning IV choragida **47,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **62,8** % ga yetgan yoki 2018-yilning IV choragida nisbatan **15,8** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilning IV choragida **50,3** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-dekabrida **62,8** % yoki **12,5** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilning IV choragida **2,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **7,1** % yoki **4,4** % birlikka oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023-yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda **45,2 %** ni, savdoda **44,2 %** ni, xizmatlar sohasida **41,8 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **58,0 %** ni, xizmatlar sohasida **49,7 %**, sanoatda **51,2 %** ni, qurilish **49,3 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda **14,4 %**, sanoatda **9,7 %** ni, xizmatlar sohasida **8,5 %** ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda **55,4** % ni, xizmatlar sohasida **55,2** % ni, sanoatda **54,3** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **50,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **48,1** % ni, qurilishda **42,3** % ni va sanoatda **40,6** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda **5,1** % ni, qurilishda **5,8** % ni hamda savdoda **4,1** % ni tashkil etdi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, foizda


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	47,5	41,4	11,1
<b>Band bo'lganlar soni</b>	30,1	62,8	7,1
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	41,1	52,9	6,0
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	32,5	60,7	6,8
<b>Raqobat muhiti</b>	45,5	51,0	3,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	52,1	43,2	4,7
<b>Band bo'lganlar soni</b>	34,8	60,9	4,3
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	41,8	54,1	4,1
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	36,9	58,4	4,7
<b>Raqobat muhiti</b>	46,4	51,2	2,4


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, foizda



2023-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, foizda



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli